Tijorat banki fond bozori ishtirokchilaridan biri bo‘lib, qimmatli qog‘ozlar bilan emitent, investitsiya, brokerlik, dilerlik faoliyatini amalga oshiradi, shuningdek ular bilan boshqa operatsiyalarni amalga oshiradi. Banklar moliya bozorida moliyaviy vositachi va professional ishtirokchi sifatida faoliyat olib boradi. [3]

Demak O‘zbekistonda moliya bozorining rivojlanishiga bank tizimi katta hissa qo‘shib kelmoqda. Bank sohasini rivojlanishi undagi o‘zgarishlar, moliya bozori bilan chambarchas bog‘likligi, uning rivojlanishida eng katta omil ekanligi shubhasiz.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Kredit tashkilotlarining, xususan, tijorat banklarining moliya bozoridagi qimmatli qog‘ozlar bilan olib boradigan faoliyatini to‘g‘ridan to‘g‘ri bank operatsiyalari toyifasiga kiritish mumkin emas, biroq, tijorat banklari kapitali va investitsiyalarini shakllantirishda, bank likvidligini boshqarishda moliya bozorining ushbu segmentida ham keng ko‘lamda faoliyat yuritiladi. [4]

Fikrimizcha, moliya bozorini o‘rganishda uni turli tomondan, ya’ni institutsional jixatdan yoki bozor qatnashchilari tomonidan, emitentlar va investorlar, investitsiya institutlari, moliya dastaklarini turlari nuqtayi nazaridan baho berish maqsadga muvofiqdir.

Moliya bozorining asosiy tarkibiy qismi xisoblangan qimmatli qog‘ozlar bozorining o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Bu bozordagi xarakatlanuvchi tovarning xususiyatlari boshqa bozorlardagiga nisbatan o‘ziga xosdir. Bu tovar turli shakldagi qimmatli qog‘ozlardir.

Qimmatli qog‘ozlar bozori – yuridik va jismoniy shaxslarning qimmatli qog‘ozlar chiqarish, joylashtirish va ularning munosabatlari bilan bog‘liq munosabatlar tizimidir. [4]

Iqtisodiy adabiyotlarda “qimmatli qog‘ozlar bozori” va “fond bozori” degan atamalarni sinonim sifatida talqin etiladi. Ushbu atamalarga aniqlik kiritishga xarakat qilamiz.

Fond bozorida emitent va bo‘lajak sarmoyador bevosita ishtirok etmaydilar. Bu bozorda albatta moliyaviy vositachi (broker yoki diler)ishtirok etadi. Fond bozorida asosan aksiyalar, obligatsiyalar, davlat qimmatli qog‘ozlari sotiladi. Bundan tashqari fond bozorida qimmatli qog‘ozlar ularga bo‘lgan talab va taklif asosida sotiladi yoki sotib olinadi.

Boshqa qarz majburiyatli qimmatli qog‘ozlar bozori. Ushbu bozorda emitent va bo‘lajak sarmoyador hech qanday moliyaviy vositachi yordamisiz bevosita oldi – sotdini amalga oshiradilar. Ushbu bozorda depozit sertifikatlari, depozit – jamg‘arma sertifikatlari va veksellar savdosi amalga oshiriladi. Shunisi diqqatga sazovorki, boshqa qarz majburiyatli qimmatli qog‘ozlar bozorida xarakatlanadigan qimmatli qog‘ozlar ularga bo‘lgan talab va taklif asosidagi narxda emas, balki oldindan belgilangan narxlar xamda shartlar asosida sotiladi. [4]

Shuning uchun jahon amaliyotida tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi professional ishtirokchi sifatida faoliyati banklar tomonidan to‘lov xujjatlari vazifasini bajaruvchi qimmatli qog‘ozlar hamda omonatga va bank hisob raqamlariga mablag‘ jalb qilinishini tasdiqlovchi qimmatliklar bilan bitimlar amalga oshirishlari mumkinligi nazarda tutiladi.

Mavzu yuzasidan manbalarga yanada yaqinroq nazar soladigan bo‘lsak, ushbu mavzu doirasida hozirda juda ko‘p tadqiqotlar olib borilayotganligi guvohi bo‘lamiz. Jumladan, rus iqtisodchisi N.M.Giblova fond bozori,



TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

tijorat banklari va iqtisodiyotning real sektori o'rtasidagi o'zaro ta'sirni tadqiq qilgan.[5] Unga ko'ra, tijorat banklari fond bozorida asosan pul mablag'larini doylashtiruvchi, ya'ni qimmatli qog'ozlarni xarid qiluvchi investor sifatidagi o'rniga ko'proq ahamiyat qaratgan.

Boshqa bir rus iqtisodchisi O.I.Lavrushin boshchiligidagi olimlar guruhi esa tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalari doirasida qimmatli qog'ozlar bozorida bank faoliyati turlari, banklarning o'z qimmatli qog'ozlarini muomalaga chiqarishi va joylashtirishi, tijorat banklarining qimmatli qog'ozlarga investitsion qo'yilmalari, davlat qimmatli qog'ozlariga xizmat ko'rsatish bo'yicha bank operatsiyalari va REPO bitimlari, banklarning qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchisi sifatidagi faoliyati to'liq ko'rib o'tilgan. [6]

Mahalliy olimlardan fond bozorini tadqiq qilgan iqtisodchi olimlar I.I.Alimov tijorat banklarining fond bozoridagi operatsiyalarini emas, balki moliya bozoridagi operatsiyalariga batafsil to'xtalib, ularning xususiyatlarini ochib berishga xarakat qilgan. [4] Yana bir mahalliy iqtisodchi olim Sh.A. Toshmatov Sh.A tijorat banklarining obligatsiyalar bozoridagi investitsion faoliyatiga ko'proq e'tibor qaratgan.Bevosita tijorat banklarini xalqaro obligatsiyalar bozoridagi faoliyati orqali obligatsiyalar portfelini shakllantirish masalalariga doir tadqiqotlar olib borgan. Bunda asosiy e'tibor bank daromadlarini diversifikatsiyalash nuqtayi nazaridan obligatsiyalar portfelini ham diversifikatsiyalashda obligatsiya emitentlarini sifat jihatidan baholash metodikasiga qaratiladi. [7]

Boshqa bir amaliyotchi bankir A.Jalilov tijorat banklarini moliya bozoridagi faoliyatini ularning qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish orqali resurslarni shakllantirish bilan bog'liq operatsiyalarini tahlil qilish orqali o'rganishaga xarakat qilgan. [8]

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, moliya bozori mamlakatda bir yo'la ikki vazifani amalga oshirmoqda. Birinchidan, u iqtisodiyotning amal qilish samaradorligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda, ikkinchidan qimmatli qog'ozlar bozori yordamida ijtimoiy xususiyatga ega bo'lgan qator muhim muammolar hal etilmoqda. Bu omillar esa moliya bozorini, uning mohiyatini yanada chuqurroq o'rganishni taqozo etadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy ishni amalga oshirishda tijorat banklarining moliya bozoridagi faoliyati, shuningdek investitsion, emission va vositachilik faoliyati qator xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tadqiq etgan va ularga nisbatan o'z yondashuvlarini shakllantirishgan. Mazkur holarga yanada yaqinroq yondoshadigan bo'lsak, deyarli barcha holatlarda tijorat banklarining moliya bozoridagi faoliyati, ushbu bozor xususidagi fikr va yondoshuvlari mazmunan bir-biriga yaqin bo'lsada, biroq ular shaklan biri biridan keskin farq qiladi. Muallif mavjud tajribalarni o'rganish va ular orqali qiyosiy tahlil o'tkazish natijasida tegishli yo'nalishlarda xulosa, taklif va tavsiyalar bergan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Har bir narsa iqtisodiyotda bir-biriga bog'langan va umuman, bank tizimi ham va boshqa tarmoqlar ham iqtisodiyotdan ajralib chiqmaydi, alohida olingan holda faoliyat yurita olmaydi. Ularning rivojlanishi turli omillarga bog'liq.

Iqtisodiyotning bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tish davrida tijorat banklari boshqa xo'jalik yurituvchi subektlar o'rtasida moliya bozorida faoliyat ko'rsatish uchun eng qulay shart-sharoitlarning imkoniyatiga ega bo'ldi va hozir ham ana shunday shart-sharoitlar imkoniyatiga egadir. Mamlakatimizda moliya bozorining shakllantirishga rivojlanishning dastlabki yillaridayoq katta e'tibor berildi. [9]

1993-yil 2-sentyabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Qimmatli qog'ozlar va fond birjasi to'g'risida" gi Qonuni bunga yorqin misol bo'la oladi. 2022 yilning o'rtalarida "Birjalar va birja faoliyati to'g'risida" gi, "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-oktyabrdagi PF-6096-sonli "Davlat ishtirokidagi korxonalarni jadal isloh qilish chora-tadbirlari va davlat aktivlarini xususiylashtirish to'g'risida"gi va 2021-yil 13-apreldagi PF-6207-sonli "Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlariga muvofiq, shuningdek qimmatli qog'ozlar bozoridagi boshqa qonun hujjatlarida ko'rsatilgan chora- tadbirlarni qo'llash orqali banklarning moliyaviy bozor salohiyatini oshirish vazifalari belgilab berildi. Yuqoridagilarga qo'shimcha sifatida ushbu shart-sharoitlar quyidalardan iborat deb aytish mumkin:

- *birinchidan,* an'ana bo'yicha tijorat banklarida moliya bozorining mohiyati to'g'risida to'la tasavvurga ega bo'lgan yuqori malakali mutaxassislar faoliyat ko'rsatadi;
- *ikkinchidan,* tijorat banklari to'g'risidagi amal qilayotgan qonunchilikning o'zi tijorat banki faoliyatini aksiyadorlik jamiyati, ya'ni muomalaga turli qimmatli qog'ozlarni va eng avvalo aksiyalarni chiqarib turuvchi emitent sifatida tartibga solib turadi. Shuni ta'kidlash lozimki, mamlakatimizda birinchi yirik emitentlar bo'lib aksiyadorlik jamiyatlari aynan shu tijorat banklari hisoblanadi;

- *uchinchidan,* odatda boshqa subektlar bilan taqqoslab koʻrilganda, tijorat banklari katta miqdorda oʻz mablagʻlari va jalb etilgan resurslarni toʻplaganlar, ular oʻz navbatida mamlakatimizning fond bozorida yirik sarmoyador (investor) sifatida qatnashish uchun kerakli darajada shart-sharoitlar yaratadi;
- *toʻrtinchidan,* Oʻzbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi tijorat banklarining moliya bozoridagi olib boradigan faoliyatini biron bir tarzda cheklanmagan va ayni vaqtda tijorat banklari oʻz mijozlarining moliyaviy-xoʻjalik faoliyati toʻgʻrisida eng kerakli maʼlumotlarga ega boʻlgan, bu esa ularga bunday maʼlumotlarni olishga huquqi cheklangan odatdagi sarmoyadorlar oldida katta imtiyozlar beradi.

Tijorat banklarining nisbatan barqaror moliyaviy holati va bank operatsiyalarining yuqori daromadliligi ularga koʻrsatiladigan bank xizmatlarining yangi turlarini, shu jumladan moliyaviy bozor bilan bogʻliq operatsiyalarning amalga oshiriladigan koʻp turlarini oʻzlashtirishga katta moliyaviy resurslarni ajratish uchun yetarlicha imkoniyat yaratib beradi.

Shu bilan birga zamonaviy sharoitda tijorat banklari bilan boshqa moliyaviy iqtisodiy muassasalar oʻrtasidagi kuchayib borayotgan oʻzaro raqobat, amaliyotdagi koʻpgina anʼanaviy bank xizmatlari hisoblanadigan (kreditlash, valyuta, moliyaviy va agentlik operatsiyalari) xizmatlarini koʻrsatishdan keladigan foydaning kamayib ketishi, tijorat banklari oʻz faoliyatining asosiy diqqat markazini milliy va xalqaro moliya bozori sohasiga koʻchirishga majbur qilmoqda.

Soʻnggi yillarda mamlakatimizda yirik aksiyadorlik jamiyatlarining muomalaga chiqargan aksiyalarini boshqarish uchun kerakli hujjatlar olish, investitsiya va xususiylashtirish jamgʻarmalari bilan ishlash kabi investitsion faoliyatning ustuvor yoʻnalishlari tijorat banklarning diqqat markazida turgan obektlar boʻlib qoldi.

Shunday qilib, banklarning moliya bozoridagi faoliyat turlarini quyidagicha tizimlashtirish mumkin.

1. Banklar moliya bozorining quyidagi segmentlarida faoliyat yuritadilar: valyuta, qimmatli qogʻozlar, pul-kredit (jumladan ipoteka kreditlari), qimmatbaho metallar va toshlar (jumladan sanʼat asarlari).
2. Koʻchmas mulk bozorida vositachi, riyeltor, ishonchli boshqaruvchi (trast), ipotekaviy investor sifati faoliyat koʻrsatadi.
3. Valyuta bozorida: diler va broker (treyder, jumladan valyuta operatori). Bunda spot va muddatli bozorlarda ishtirok etadi.
4. Pul-kredit bozorida: pul hisob raqamlari va pul vositalari (cheklar, kartochkalar va h.k.) boʻyicha mijozlarga operatsion hizmat koʻrsatish; kredit berish va olish; boʻlak kreditorlarning kredit transhlari boʻyicha operator boʻlish va h.k.
5. Qimmatli qogʻozlar bozorida: emitent (emissiyalanuvchi va yemissiyalanmaydigan turlari boʻyicha); institutsional investor (oʻzining investitsiyalarini boshqarish boʻyicha) va kollektiv investor (mijozlarining investitsiyalarini boshqarish boʻyicha); professional institut (broker, trayder, diler, anderrayter, trast, konsalting, kliring, depozitariy, transfer-agent va h.k.).

Biz yuqorida qayd etib oʻtgan shart-sharoitlar va nisbatan qulay omillarning mavjudligi mamlakatimiz tijorat banklari oldida qimmatli qogʻozlar bozoridagi faoliyat koʻlamini yanada kengaytirish va yaqin kelajakda mamlakatimiz iqtisodiyotining ushbu ustuvor sohasidagi faoliyatini yanada faollashtirish uchun katta imoniyatlarni ochib bermoqda.

2020-yilda davlat banklarini transformatsiya qilish, ularning faoliyatini bozor tamoyillari va xalqaro standartlarga muvofiq qayta tashkil qilish hamda bank tizimida xususiy kapital ishtirokini kengaytirish va raqobat muhitini kuchaytirish maqsadida 12-mayda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5992-sonli Farmoni bilan 2020–2025-yillarga moʻljallangan Oʻzbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi tasdiqlandi. [10]

Mazkur qaror asosida mamlakat bank-moliya sektori rivojlanish darajasi va barqarorligini baholash maqsadida 2024-yilning yakuniga qadar Xalqaro valyuta jamgʻarmasi va Jahon bankining dasturi (FSAP) asosida moliyaviy sektor holatini baholash nazarda tutilmoqda. [2]

Yuqoridagilarga qoʻshimcha ravishda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning quyidagi soʻzlarini keltirib oʻtish oʻrinlidir. “Soʻnggi 4 yilda iqtisodiyotimizning barcha jabhalariga bozor mexanizmlarini joriy etish borasida jiddiy qadamlar tashlandi. Endigi vazifa – chuqur tarkibiy islohotlar orqali uzoq muddatli barqaror oʻsishning poydevorini yaratishdan iborat. [2]

Bunda banklarni xususiylashtirish jarayoni bosqichma-bosqich, yaʼni birinchi bosqichda davlat ulushi mavjud boʻlgan banklar faoliyatini transformatsiya qilish, ikkinchi bosqichda esa davlat aksiyalarini nufuzli xorijiy investorlarga sotish nazarda tutilgan.



TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Demak, mamlakatimizda ham tijorat banklari rivojlanib, takomillashib bormoqda. Bu esa ularning mijozlarning pul mablag'lari va daromad olishlari uchun raqobatni kuchaytiradi. Shu bilan birga respublikada faoliyat yuritayotgan tijorat banklarini milliy va xalqaro moliya bozorlaridagi operatsiyalarini hamda xizmatlarini kengaytirishga majbur etmoqda.

2022-yilning 17-avgust kuni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan davlat ishtirokidagi yirik korxonalar aksiyalarini fond birjasida birlamchi (IPO) va ikkilamchi (SPO) ommaviy joylashtirish to'g'risida qarori qabul qilindi.

2022-yil 20-dekabrida esa O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev Oliy Majlisga yo'llagan murojaatnomasida 2023-yilda "katta xususiylashtirish" boshlanishi, mingga yaqin korxona savdoga chiqarilishini ta'kidlagan edilar.

"Mening katta niyatim – yurtdoshlarimiz orasida yuz minglab mulkdorlar, aksiyadorlar paydo bo'lsin. Odamlarimiz o'z omonatlarini investitsiya qilib, yuqori daromadlarga ega bo'lsin...

Keyingi yilda eng yirik 10 ta kompaniya va tijorat banklarimizning aksiyalari o'z aholimiz uchun ochiq va shaffof savdoga chiqariladi. Bu chinakam xalq IPO'si bo'lishiga ishonaman". [11]

2019-yil fevral oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-iyuldagi PQ-3877-son "Tashqi moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq ilk marotaba jahon moliya bozorlarida O'zbekiston Respublikasining umumiy hajmi 1 milliard AQSH dollari miqdoridagi 5 va 10 yil muddatli suveren xalqaro obligatsiyalari joylashtirildi.(1-jadval).

1-jadval: O'zbekiston Respublikasining xalqaro obligatsiyalarini joylashtirishdan tushgan mablag'larni auksion savdolari o'tkazish orqali tijorat banklari depozitlariga joylashtirish shartlari[12] (mln. AQSH dollarida)

| Depozit muddati | Depozitga joylashtiriladigan mablag'larning maksimal miqdori | Minimal yillik foiz stavkasi | Foiz to'lovlari muddati | Depozitni qaytarish muddati |
|---|---|---|---|---|
| 5 yillik depozit | 459,6 | 5,25% | har 6 oyda (10-fevral / 10-avgust) | 10.02.2024-y. |
| 10 yillik depozit | 429,6 | 5,875% | har 6 oyda (10-fevral / 10-avgust) | 10.02.2029-y. |
| **Jami** | **889,2** | **-** | **-** | **-** |

2020-yil 20-noyabrda 2 trillion so'm hajmida suveren obligatsiyalar London fond birjasida joylashtirildi.

2-jadval: O'zbekiston Respublikasining navbatdagi xalqaro obligatsiyalarini London fond birjasida joylashtirish shartlari[12]

| Depozit muddati | Depozitga joylashtiriladigan mablag'larning maksimal miqdori | Minimal yillik foiz stavkasi | Depozitni qaytarish muddati |
|---|---|---|---|
| 10 yillik depozit | 635 mln.AQSH doll | 3,9% | 10.07.2030-y. |
| 3 yillik depozit | 2,5 trln. so'm | 14,0% | 10.07.2023-y. |

2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, O'zbekistan Respublikasining navbatdagi xalqaro obligatsiyalari ikki transhda – 635 mln. AQSH dollari miqdorida 3,9% kupon bilan 10 yil muddatga va 2,5 trln. so'm miqdorida 14% kupon bilan 3 yil muddatga chiqarildi.

Moliya vazirligi xabariga ko'ra, London fond birjasida joylashtirish bo'yicha boshlang'ich stavkalar mos ravishda 4,25 foiz atrofida va 15,25 foiz atrofida belgilangan. Shu bilan birga, xalqaro obligatsiyalarning milliy valyutada chiqarilishi valyuta xatarlarini kamaytirishga xizmat qilish bilan birga kelajakda ichki moliya bozoriga, jumladan davlat g'aznachilik obligatsiyalari bozoriga xalqaro investorlarni jalb qilish uchun zamin yaratadi.

3-jadval: O'zbekiston Respublikasi fond birjasida eng yuqori savdo hajmiga ega bo'lgan TOP 10 ta emitent. (01.01.2024) [13]

| № | Tarmoqlar | Bitimlar soni | Qimmatli qog'ozlar miqdori | Savdo hajmi (mlrd so'm) | Ulushi (%) |
|---|---|---|---|---|---|
| 1. | Agrosanoat sohasi | 18521 | 151092393 | 597,74 | 22,03 |
| 2. | Banklar | 229898 | 12037218814 | 971,97 | 35,83 |
| 3. | Lizing | 639 | 19638 | 13,90 | 0,51 |
| 4. | Sanoat | 36798 | 4987566 | 108,45 | 4,01 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 5. | Aloqa | 20816 | 6068444 | 37,01 | 1,36 |
| 6. | Sug'urta | 31819 | 15709897105 | 77,23 | 2,85 |
| 7. | Qurilish | 20085 | 3300979 | 17,76 | 0,65 |
| 8. | Transport | 2579 | 555198 | 66,54 | 2,46 |
| 9. | Energetika | 22697 | 6819617 | 119,45 | 4,40 |
| 10. | Boshqalar | 28018 | 160586651 | 702,69 | 25,90 |
| | **Jami** | **411870** | **28080546405** | **2712,75** | **100,0** |

2023-yilda birja savdosi iqtisodiyotning 10 xil sektori tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshirildi. Eng ko'p bitimlar bank va sanoat tarmoqlari emitentlarining qimmatli qog'ozlari bilan qayd etildi. Bank sektori emitentlarining qimmatli qog'ozlari bilan 229898 ta bitim tuzildi, bu birja operatsiyalari umumiy sonining 55,82 foizini tashkil etadi. Sanoat sektorining 36798 emitentining qimmatli qog'ozlari bilan 12 ta bitim tuzildi (birja operatsiyalari umumiy sonining 8,93%). Bank sektorining qimmatli qog'ozlari birja operatsiyalari umumiy hajmining 35,83 foizini tashkil etdi. Mazkur soha emitentlari bilan tuzilgan bitimlarning umumiy hajmi 971,97 mlrd. so'mni tashkil etdi. Boshqa tarmoqlar emitentlarining qimmatli qog'ozlari bilan tuzilgan bitimlar hajmi 702,69 mlrd. so'mni tashkil etdi, bu umumiy birja hajmining 25,90 foizini tashkil etdi. Agrosanoat va energetika sohalaridagi aksiyadorlik jamiyatlarining qimmatli qog'ozlari bilan tuzilgan bitimlar mos ravishda 597,74 milliard va 119,45 milliard so'mni tashkil etdi. Bitimlarning eng kichik hajmi qurilish va lizing sohasidagi qimmatli qog'ozlar bilan mos ravishda 17,76 milliard va 13,90 milliard so'm miqdorida qayd etildi.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida keltirilganlardan ko'rish mumkinki, mamlakatimizdagi tijorat banklarining moliya bozoridagi faoliyati muvofaqqiyatli rivojlanib, o'sish sur'atlarini yaxshilashda davom etib kelmoqdalar.

## XULOSA VA TAVSIYALAR

Shuni e'tirof etish joizki, mamlakatimiz iqtisodiyotining yetakchi tarmog'i bo'lmish bank tizimimiz bugungi kun zamon talabiga javob berishi uchun o'z faoliyatida zamonaviy operatsiyalarni, ayniqsa moliya bozorida operatsiyalarni tashkil etish va uni takomillashtirish birinchi darajali dolzarb masala hisoblanadi. Shunday zamonaviy sharoitda moliyaviy bozordagi operatsiyalari asosida bank daromadini oshirish, xususan tijorat banklarining mablag'lari manbasini kengaytirish, qimmatli qog'ozlar bilan faol aktiv va vositachilik operatsiyalarini joriy etilishi eng muhim masala ekanligi shubhasiz.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 2-sentyabrdagi "Kapital bozorini rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-291-son qarorida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-yanvardagi "Kapital bozorini qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini joriy etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-90-son qarorida tutilgan imtiyozlarning amal qilish muddatini 2028-yil 31-dekabrga qadar uzaytirish, soliq to'lovchining soliq davri davomida jami mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining yuz baravarigacha bo'lgan miqdordagi ish haqi va boshqa daromadlaridan mahalliy fond bozorida emissiya qilingan qimmatli qog'ozlarni sotib olish uchun shaxsiy investitsiya hisobvarag'iga yo'naltiriladigan daromadlarini ularni o'n ikki oy ichida qaytarib olmaslik sharti bilan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan ozod qilish shartlari belgilab qo'yildi. [14]

Bundan tashqari qarorda minoritar aksiyadorlar va investorlar huquqlarini himoya qilish hamda ularni kapital bozoriga jalb etishni rag'batlantirish maqsadida:

a) 2023-yil 1-oktyabrdan boshlab:

- davlat ulushi 50 foiz va undan yuqori bo'lgan korxonalarning aksiyalari fond bozorida ommaviy taklif qilish orqali joylashtirilgandan so'ng kamida yetti yil davomida mazkur korxonalar sof foydasining kamida 30 foizi dividend to'lashga yo'naltirish;
- davlat ulushi 50 foiz va undan yuqori bo'lgan korxonalarga xizmat ko'rsatuvchi anderrayterlarning xizmat haqi qimmatli qog'ozlar rejalashtirilganga nisbatan qimmatroq va (yoki) ko'proq joylashtirilganligi natijasida shartnomada kelishilgan miqdordan oshgan hollarda, shartnoma boshlang'ich narxini 10 foizdan ortiqqa oshirmaslik to'g'risidagi cheklovni bekor qilish tartibi o'rnatildi.

Bulardan kelib chiqib, ta'kidlash lozimki, O'zbekistonda qariyb 100 mingdan ortiq ma'suliyati cheklangan jamiyatlar o'z mablag'lari va bank kreditlari hisobidan rivojlanmoqda. Qimmatli qog'ozlar bozorining a'zolarini kengaytirish, shuningdek respublikaning xo'jalik yurituvchi subektlarining umumiy sonida muhim ulushni egallagan ma'suliyati cheklangan jamiyatlariga faoliyatini rivojlantirish korporativ obligatsiyalar chiqarish ruxsat berish zaruriyati paydo bo'lmoqda.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Shu maqsadda O‘zbekistonning yirik tijorat banklari investitsion faoliyatni universallashtirishni oshirish, bank biznesining daromadliligini oshirish va mahalliy tovar ishlab chiqaruvchilar uchun investitsiyalar ko‘lamini kengaytirish maqsadida qimmatli qog‘ozlar investitsiya salohiyatidan samarali foydalanish borasida boy xorijiy tajribani yanada kengroq faoliyatlarida tadbiq etishlari lozim.

Investitsiya faoliyatining qimmatli qog‘ozlar bilan ishlash potensialidan foydalanish hajmini oshirish jarayonida mamlakat tijorat banklari quyidagilarga intilishlari kerak:

- tijorat bankining mablag‘larini boshqa qimmatli qog‘ozlarga investitsiya qilmasdan,o‘zlarining qimmatli qog‘ozlarini yoki korxonalar aksiyalarini chiqarish orqali pul mablag‘larini jalb qilish,
- qimmatli qog‘ozlar portfelini doimiy ravishda diversifikatsiya qilish. Bankning investitsion portfeli hajmi qanchalik ko‘p jihatdan diversifikatsiya qilingan bo‘lsa; sanoat tomonidan; hududlar bo‘yicha; qimmatli qog‘ozlar turlari bo‘yicha; shartlar va boshqalar bo‘yicha, uning daromadlari yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan yo‘qotishlarga barham berishi ehtimoli ko‘proq.
- qimmatli qog‘ozlar bozorida banklarning faoliyatini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish, turli regulyatorlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar darajasini oshirish va moliya bozorida rivojlantirishda ularning ishtirokini kengaytirish va boshqalar.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida keltirilganlardan ko‘rish mumkinki, mamlakatimizda tijorat banklari moliyaviy barqarorligini oshirish orqali aholini va umuman iqtisodiyot tarmoqlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimi muvofaqqiyatli rivojlanib, ularning o‘sish sur’atlari yaxshilab kelmoqda. Shuningdek, ko‘rib o‘tilgan muammolarni hal etish, moliya bozoridagi moliyaviy mablag‘lardan foydalanishni tijorat banklari orqali kengaytirish, ular orasidagi raqobatbardoshlikni yanada kuchaytirishga va banklar faoliyatining barqarorligini oshirishga yordam beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son Farmoniga 1-ILOVA. 21-fevral, 2024-yil.
2. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. //Xalq so‘zi. 29-dekabr. 2018-yil.
3. Toymuxamedov, I. R. ., Norov, A. R. ., Ibodullayeva, M. T. qizi ., Bekmurodova, G., & Farmanova, U. A. qizi . (2023). Prospects of Implementing Islamic Financial Mechanisms to Uzbekistan. EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY, 3(2), 34–41. Retrieved from https://www.inovatus.es/index.php/ejbsos/article/view/1443
4. Alimov I.I. Xusanboyev A.G‘. Ikramov A.I. Tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalari O‘quv qo‘llanma. T.: TDIU 2010. 214 b.
5. Гиблова Н.М. Тенденции и перспективы развития инвестиционных операций коммерческих банков на фондовом рынке России. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – Москва, 2013. – 26 с.
6. Банковское дело. Учебник / Под ред. О.И. Лаврушина. 13-е изд. – М.: КНОРУС, 2020. – 632 с.)
7. Toshmatov Sh.A. O‘zbekiston xalqaro obligatsiyalarining jahon moliyaviy bozorlarida joylashtirilishi: risk va prognozlar. http://review.uz/oz/post/zbekiston-xalaro-obligatsiyalarining-jaon-moliyaviy-bozorlarida-joylashtirilishi-risk-va prognozlar?q=%D0%A2%D0%BE%D1%88%D0%BC%D0%B0%D1%82%D0%BE%D0%B2
8. А.Жалилов. Молия бозори орқали банклар молиявий ресурсларини ошириш имкониятлари. International Journal of Finance and Digitalization. www.ijfd.uz. ISSN: 2181-3957 Vol. 2 Issue 04, 2023.
9. Toymuxamedov, I. R., Norov, A. R., Abdurakhmanova, M. M., Kamilova, I. X., & Bazarova, N. R. (2022). The Role of Bank Investment Loans in Increasing the Export Potential of Uzbekistan Enterprises. Spanish Journal of Innovation and Integrity, 5, 356-361.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2020–2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi 2020-yil 12-maydagi PF-5992-sonli Farmoni.
11. https://daryo.uz/k/2022/12/23/xalq-iposi-aslida-nima-unda-oddiy-aholi-va-kompaniyalar-qanday-foyda-koradi?ysclid=lv4s19l4uu351267549
12. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari, 2020-yil.
13. “Toshkent” Respublika fond birjasi yillik hisoboti. 2023-yil
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 2-sentyabrdagi “Kapital bozorini rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-291-son qarori.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 4**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.